The national specificity of speech etiquette in each country is extremely bright, because the unique features of the language here are superimposed by the features of rituals, habits, everything accepted and not accepted in behavior, permitted and prohibited in social etiquette.

Thus, the education of conscious etiquette behavior involves knowledge of the rules of polite behavior and speech, their national specifics, knowledge of etiquette formulas (stereotypes, taboos) in accordance with communication situation.

In the process of education, a person becoming a personality and more perfect mastering the language learns the ethical norms of relationships with others, including speech relationships, in other words, masters the culture of communication with the help of linguistic means.

References

1. E.Sepir 2002:185.
2. Fox K. (2014). Watching the English. The Hidden Rules of English Behaviour, UK, Hodder and Stoughton, p. 12.
3. Spolsky B. (1998). Sociolinguistics. - Oxford: Oxford University Press, p.20.
4. Oxford Advanced Learner's Dictionary 7th edition, Oxford University Press, 2005.

OKMK RUX ZAVODI SHAROITIDA JAHON RUX ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIK USULLARINI TADBIQ QILISH

[1]Tursunova D [2]Shamsuddinov L.O., [2]Mirusmanova P.B.
[1]Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali assistenti
[2]Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga tegishli Rux zavodida rux ishlab chiqarishdagi rux keklarini qayta ishlashning jahon miqyosidagi usullari o‘rganildi. Rux ishlab chiqarishning optimal usullari gematit, yarozit va getit jarayonlari bir-biri bilan solishtirildi.

Kalit so‘zlar: Vels, kek, koks, Yarozit, Getit, Gematit, optimal, uchirmalar, vodorod sulfid, tiklovchi, sfalerit, avtoklav.

Kirish qismi: Olmaliq Kon metallurgiya konbinati qimmatbaho metallar ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi o‘rinda turadi.

So‘ngi yillarda yurtboshimiz metallurgiya sohasiga katta e’tibor qaratgan. Ayniqsa ishlab chiqarish jarayonidan hosil bo‘lgan chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha juda ko‘p islohatlar olib borilgan. Rux ishlab chiqarish jarayonida tanlab eritishdan so‘ng qoldiqda rux keklari hosil bo‘ladi. Bu rux keklari vels pechida qayta ishlanadi.

Asosiy qism: *Biz bilamizki har bir ishlab chiqarishning o‘z kamchiliklari mavjud bo‘ladi. Aynan Rux ishlab chiqarishdagi Velslash jarayonining kamchiliklari bir qancha. Bular:*

- klinkerni hosil bo‘lishi;
- uchirmalarni ushlab qolishning murakkabligi;
- jarayonga ishlatiladigan koks sarfining yuqoriligi;
- mahsulot tarkibidagi zararli qo‘shimchalarni kamaytirish maqsadida qo‘shimcha jarayonlarni qo‘llanilishi;
- mahsulot sifatining doimo bir xil bo‘lmasligi.

Rux kekini gidrometallurgik usulda qayta ishlab velslash jarayonidan voz kechish orqali bu kamchiliklarni anchagina bartaraf etish mumkin. Gidrometallurgik qayta ishlashni amalga oshirishda quyidagilarni amalga oshirish kerak bo‘ladi.

- ✓ rux keki tarkibidagi *Fe* ni cho‘kmaga o‘tkazish;
- ✓ ruxni to‘liq eritmaga o‘tkazish;
- ✓ qo‘rgoshin va nodir metallarni qoldiqga o‘tkazish.

Rux kekini pirometallurgik qayta ishlash.

Pirometallurgik usulda rux keklari aylanma quvursimon pechda qayta ishlanadi. Kek aylanma quvurli pechda harorat 1000-1200˚C da qayta ishlanadi. Rux kekiga

tiklovchi sifatida koks qo‘shiladi. Berilgan haroratda kuchli tiklovchi pech atmosferasida rux, qo‘rg‘oshin va uning birikmalari, noyob metallarning past oksidlari va sulfidlari bug‘ ko‘rinishida yuqori muvozanat bosimidan foydalangan holda uchiriladi, gaz fazasida esa ularning oksidlanishi yuz beradi. Bunda asosan rux, qo‘rg‘oshin va noyob kadmiy, indiy, talliy, germaniy, tellur metallarini oksidlaridan tarkib topgan uchirma olinadi. Qattiq qoldiq- klinkerda mis, nodir metallar va bo‘sh tog‘ jinslari qoladi. Rux keklari OKMK da Rux zavodining Velsevlash pechida qayta ishlanadi

Keyingi boshqichda Zn keki suv bug‘i bilan birgalikda termik ishlovga uzatiladi. Ayni damda Olmaliq KMK tarkibidagi rux zavodida rux keklari pirometallurgik usulda qayta ishlanib kelinmoqda. Rux kekini velslash pechida koks yordamida qayta ishlanadi. Velslash jarayonining asosiy kamchiligi quyidagilar: koks sarfining yuqoriligi va oltin, kumush, mis, temir, qo‘rg‘oshin va boshqa metallarni yo‘qolishi, uchirmalarni ushlab qolishning murakkabligi. Shuning uchun so‘nggi yillarda rux kekini gidrometallurgik qayta ishlash texnologiyasi yaratish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Rux zavodining asosiy vazifasi ayni xom-ashyo tarkibida foydali komponentlarning hammasini ajratib olish hisoblanadi. Rux boyitmalarini gidrometallurgik qayta ishlashning asosiy usuli bu tanlab eritish jarayonidir.

Rux oksidi sulfat kislotaning kuchsiz eritmasida yaxshi eriydi, rux sulfati esa yaxshi eriydi:

$$ZnO + H_2SO_4 = ZnSO_4 + H_2O$$

Rux sulfidi qizitilgan kuchli sulfat kislotasida erishi mumkin:

$$ZnS + H_2SO_4 = ZnSO_4 + H_2S\uparrow$$

bunda zaharli Vodorod sulfid gazi ajralib chiqadi.

Bugungi kunga rux kekini gidrometallurgik qayta ishlashdan oldin qizigan suv bug‘i ishtirokida kuydirish yaxshi natija birb kelmoqda. Zn kekni suv bug‘i ishtirokida termik ishlov berish jarayonining kimyosi birlamchi, oraliq va yakuniy mahsulotlar hosil bo‘lishi bilan tushuntirib beriladi. *ZnS* li sfaleritning sezilarli oksidlanishi boshlang‘ich haroratidan 900°C gacha birlamchi qattiq oksidlanish mahsuloti ZnO ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotlar davomida turli metallarning eritmaga o‘tish darajasiga suv bug‘i ishtirokida termik ishlov berish haroratning ta’siri o‘rganildi. Tajribalar 500-950°C haroratlar oralig‘ida olib borildi. Harorat 900°C bo‘lganda suv bug‘i ishtirokida termik ishlov berish sulfat kislotasi eritmasiga ruxning o‘tish darajasi ijobiy ta’sir qiladi, harorat 900°C dan yuqori bo‘lganda suv bug‘i ishtirokida termik ishlov berishdan hosil bo‘lgan mahsulotdagi rux va misning eritmaga o‘tish darajasi biroz ortadi.

Jahon amaliyotida rux kekini gidrometallurgik qayta ishlashning bir nechta usullarini o‘zaro solishtirib chiqamiz. Rux kekini gidrometallurgik usul bilan qayta

ishlash rux ferritni yuqori haroratda sulfat kislotasida eritishga asoslangan. Bunda rux va temir eriydigan sulfat holatiga o‘tkaziladi. Keyinchalik temir eritmadan har xil qiyin eriydigan birikmalar shaklida (gidrooksid, getit, yarozit) cho‘ktiriladi. Rux ferriti yuqori konsentratsiyali sulfat kislotasida yuqori haroratlarda eriydi.

Rux kekini getit usulida qayta ishlash.

Rux kekini gidrometallurgik qayta ishlash hozirgi kunda keng tarqalayotgan jarayondir. Bu usullardan asosan gematit, getit va yarazit jarayonlar qo‘llanilmoqda. Getit jarayoni. Ushbu jarayon hozirgi kunda Belgiyaning Balen shahridagi rux ishlab chiqarish zavodida qo‘llaniladi. Bunda dastlab rux keki qayta ishlangan elektrolit bilan 6-8 soat davomida, 95°C haroratda tanlab eritiladi. Jarayon erkin sulfat kislotasining qoldiq miqdori 50 g/l bo‘lguncha davom ettiriladi. Olingan qo‘rg‘oshin - kumush keki tarkibida 25% Pb va 3-4 % Zn bo‘ladi, so‘ngra kek qo‘rg‘oshin ishlab chiqarishga yuboriladi. Pb-Ag kekining ajralib chiqishi umumiy rux kekining 1/3 qismini tashkil etadi.

Rux kekini yarozit usulida qayta ishlash. Ushbu jarayon hozirgi kunda Norvegiyaning Oddo shahridagi rux ishlab chiqarish zavodida qo‘llaniladi. Bu yerda rux keki 150-200 g/l sulfat kislota eritmasida 80-90 ℃ da 4-6 soat davomida qayta ishlanadi. Qoldiq tarkibida asosan qo‘rg‘shin sulfat, kremniy oksidi temir oksidlari va oltin, kumush bo‘lib, eritmadan ajratib olinadi va qo‘rgoshin zavodiga yuboriladi. Jarayonnig kamchiligi: eritmani qizdirish va sovitish uchun qo‘shimcha jihozlar ishlatilishi, yarazitning cho‘ktirsh vaqtining ko‘pligida

Rux kekini gematit usulida qayta ishlash. Jarayon Yaponiyaning “Akita zink” firmasining “Induzima” zavodi sharoitida rux keki qayta ishlanadi. Gematit jarayonida rux keklari avtoklavda qayta ishlanadi. Bunda harorat 110-180℃ ni tashkil etib, 150-180 g/l konsentratsiyali sulfat kislotasida tanlab eritiladi. Sulfat kislotasi konsentratsiyasi 40-50g/l bo‘lguncha tanlab eritiladi. Bu jarayon sanoatda asosan ikkita korxonada ishlatiladi: Yaponiyaning “Akita Zink” firmasining induzima zavodida va Germaniyaning Datelh zavodida qo‘llaniladi.


Keklarni gematit usulida qayta ishlaganimizda cho‘kmaga ko‘p miqdorda temir o‘tadi. Gematit jarayoni boshqa jarayonlardan avzalligi shundaki ko‘p miqdordagi temirni ajratish bilan birga yuqori temir tarkibli mahsulot olinadi va po‘lat eritish zavodiga yuboriladi. Jarayonning kamchiligi shundan iboratki jarayonning murakkabligi va yuqori qiymatli dastgoh avtoklavning ishlatilishidir. Gematit jarayonining kimyoviy tarkibi quydagicha:

$$Zn\ 0{,}8\%;\ Fe\ 63{,}5\%;\ S\ 1{,}5\%;\ Pb\ 0{,}02\%;\ As\ 0{,}03\%.$$

Yarozit, getit va gematit jarayonlarida rux kekini qayta ishlashning texnologik ko‘rsatkichlari quyidagicha:

Metallar	Metallarni ajralib olish darajasi, %		
	Yarozit jarayoni	Getit jarayoni	Gematit jarayoni
Zn	97,3	97,1	96
Pb	85	85	85
Ag	80	80	80
Au	80	80	82
Cu	94	70	94
Cd	94	80	94

Zn kekini tanlab eritish uchun erituvchi sifatida eng qulay, arzon va yetarlicha zaxirasi mavjud bo‘lgan H2SO4 da foydalanish kerak. Kekni maydalab, yanchib hajmini 0,1 mm kattalikkacha keltirib, hosil bo‘lgan massani magnit separatoridan foydalanib separatsiyadan o‘tkazish kerak. Bu jarayonda magnitli va magnitsiz boyitma chiqindisi hosil bo‘ladi. Magnitli boyitma chiqindisi kislotada tanlab eritishga uzatiladi.




Rux keki magnitli separatsiyadan o‘tkazilgandan so‘ng magnitli va magnitli boyitma chiqindisiga ajraladi. Bundan magnitli boyitma chiqindisini olib sulfat kislotasi yordamida magnitli tanlab eritish uskunasida tanlab eritiladi.

Tanlab eritish jarayoni tugagandan so‘ng, eritma filtrlanadi. Filtratda qolgan kek quritilib tarozida tortiladi. Bunday tanlab eritish jarayonlari har xil temperaturada, har xil konsentratsiyali sulfat kislota eritmalarida va har xil vaqt oralig‘ida jarayon takrorlanadi.


Muhitlarning o'zgarishi orqali turlicha natijalar tanlab olinadi va eng afzal va rentabelligi balandroq bo'lgan usuldan foydalanish tavsiya etiladi.

Rux kekini magnitli separatsiyadan o'tkazilgandagi magnitli fraksiyasi:



Ushbu grafikdan ko'rishimiz mumkinki magnitli fraksiyada Fe birlashgan metallar ancha tez ajralishi kuzatiladi va separatsiyaning ushbu usuli metallarni ajratishda yuqori natija berishi separatsiyaning boshqa usullaridan magnitli usulga o'tishga turtki beradi.

Rux kekini magnitli separatsiyadan o'tkazilgandagi magnitli boyitmaning chiqindisini fraksiyasi.



Ushbu grafikdan ko'rinib turibdiki, magnitli separatsiyada magnitli boyitma ciqindisi tarkibidagi metallar miqdori anchagacha kamaygan. Bu esa magnitli separatsiyalash jarayoni boshqa usullarga nisbatan eng optimal uslligini bildiradi.

Tajribalar natijasida olingan grafikda biz asosiy Zn ruxning 2 amplitudali magnit separatsiyasidan so'ng chiqindining miqdori 17,8% dan 11,4% gacha kamayganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, rux ishlab chiqarishning uchala usulining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Shuning uchun ham bu usullardan haligacha foyadalanib kelinmoqda. Lekin tajribalar shuni ko‘rsatdigi gematit usulining optimallik darajasi qolgan ikkala usulga nisbatan foydaliroq. Chunki boshqa metallarga nisbatan Ferritni ajratib olish osonroq kechadigan jarayon hisoblanadi.

Lekin Gematit jarayonida qo‘llaniladigan avtoklavga ishlatiladigan energiya qimmatligi bu jarayonning ishlab chiqarish harajatlarini oshirib yuboradi. Shuning uchun bundanda mukammalroq ishlab chiqarish yo‘llarini ishlab chiqish kerak va sanoatga joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Yusupxodjayev,B.T.Berdiyarov, S.T.Matkarimov, S.Q. Nosirxo‘jayev “Og‘ir rangli metallar metallurgiyasi” Toshkent 2020.y
2. A.S. Xasanov, K.S. Sanakulov, A.A. Yusupxodjayev. Rangli metallar metallurgiyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Fan, 2009
3. Yusupxodjayev A.A. Og‘ir metallar metallurgiyasi. Ma’ruzalar to‘plami. – T.: ToshdTU, 2002.
4. Okmk.uz

STRUCTURE OF THE LEVEL OF PREPARATION OF LONG-DISTANCE RUNNERS

Oktamov Dilyorbek Tajiboyevich
Teacher of the interfaculty physical culture and sports department of
Andijan State University

Abstract: The specific features of the training of long-distance running student-athletes studying in higher educational institutions were considered in this article. The need to improve individual training, the role of running training in the anaerobic mode, and the theoretical basis of using an individual approach in the training of athletes among students participating in athletics competitions are presented.

Key words: running, physical training, physical abilities, methodology of middle and long distance running.

INTRODUCTION

Athletics occupies a vanguard position in the activities of students of general secondary educational institutions, academic lyceums and higher educational institutions. Many people who are involved in physical training like to run in different ways, because running is a natural movement and a popular sport among the population. Therefore, it is possible to run at any time of the year, in different weather conditions and terrain.

The effectiveness of running is that it strengthens the state of health with a complex organizational system, and at the same time, the authors mentioned below have purposefully solved these problems [L.P. Matveev 1994, 1997; N.G. Ozolin, 1965; 1980; V.P. Filin 1979; 1995; V.N. Platonov, 1980; 1997; V.G. Nikitushkin, 1999; V.G. Nikitushkin et al., 2005 et al.].

A long-term system of training runners and periodization of training is interrelated with interacting training tools and methods, as a whole, physiological, rehabilitation, theoretical and integral (selected sports) unites directions.

In the methodology of the multi-year training cycle, all these types of training are carried out in parallel and more effectively when systematic training, training, performance of the planned task, participation in various sports competitions and maintaining health in a high-temperature environment are observed. . At the same time, with long-term preparation and periodization of educational cycles, global tasks are set, such as increasing people's interest and activity in physical education and sports, as well as choosing a specialty, and then gradually developing general and special physical education. Preparation, mastering and improvement of the techniques and tactics of the chosen sport, improvement of moral-volitional, psychological and

physiological qualities, acquisition of theoretical and practical knowledge, skills and qualifications in order to effectively implement the methods and systems of sports training. .

All these tasks are solved systematically by years during all training of the athlete. It is known that for athletes specializing in long-distance running, the whole process of the long-term training cycle from the beginning to the master of sports of the international class (XTSU) consists of several important stages: initial sports training, initial specialization, deep training, improvement of training and high sportsmanship.

Each stage takes 2-3 years. In this regard, the stages and long-term training of athletes require a flexible approach, taking into account age, maintaining health and increasing the number of people based on the interests of training and sports. Naturally, such an initial stage of adaptation to sports, especially running, is mainly manifested in childhood and adolescence. Therefore, a long-term training system and for athletes, a scientifically based approach to periodization and implementation of the training cycle is required. Scientific studies of scientists and research of experienced trainers have shown that the dynamics of training load parameters and other indicators in middle and long-distance runners differ depending on the age of the athletes during the long-term cycle of sports training.

Therefore, regular increase in training load volume according to age, as well as stabilization of the total load volume in (CUN) and (SU) with reasonable increase of its intensity, allows to optimize sports.

In this regard, in our opinion, with a long-term periodic plan for training long-distance runners, it is appropriate to classify athletes, as far as possible, in the volume of cyclic exercises performed in aerobic and anaerobic exercises.

In general, the problem of the training methodology and the long-term system of periodization by sports requires in-depth study, taking into account the hot climate of the Central Asian region.

In higher education institutions, great attention is paid to increasing the level of physical fitness of students, as well as to training the moral and willful qualities of future coaches. One of the leading areas of the Faculty of Physical Culture is improving the sports skills of students, as they are considered future specialists in physical education and sports.

Sports are an integral part of student activities. Sports training helps students to develop skills related to quick orientation in different situations, timely decision making, etc.

In addition, we should not forget that student-athletes of higher educational institutions take part in national and international competitions. Running is given a lot of time and importance in higher education institutions.

Thus, running is one of the integral parts of students and is one of the endurance control exercises. Recently, the experience of leading foreign specialists in sports physiology, sports medicine, sports psychology, including the training of athletes, has been used.

A large number of scientific articles and studies have appeared devoted to the study of the specific characteristics of sports training.

These studies describe the characteristics of running technique, various methods of preparing for competitions, the importance of tactics in long-distance running, and other components that allow to achieve decent results in this sport.

The analysis of the literature showed that issues affecting the specific characteristics of the training of long-distance runners during their studies in higher education have so far been neglected. Based on the main points of the training process and activities of long-distance runners during the study of scientific literature, the most important and basic components of achieving a good result in this type of athletics are technical and tactical training, as well as the methodology of training runners, including two main directions includes: improving running technique and increasing the functional capabilities of the athlete's body.

Therefore, the basis of technical training is the educational process, in this regard, there should be consistency between the teaching methodology and modern trends in education. Approaches to teaching in departments, studying the theory and methodology of physical education helped to identify the following modern trends:

1. During training, the main emphasis should be on natural accelerations in the development of individual elements of the athlete's ability to move.

2. Training should be carried out depending on the type of moral and psychological characteristics of athletes.

It should be noted that students studying at the faculty of physical culture, unlike students of other higher educational institutions, devote their time to the educational process and sports activities.

When studying methodological recommendations for the training of long-distance runners, innate and acquired individual abilities and characteristics of athletes, as well as their level of special training, psychological development, education and specific characteristics of sports are often noted.

The way to achieve success and positive results in any sport, including athletics, is to perform a large number of different exercises and exercises.

In order to achieve high results in RUNNING, it is necessary to devote a lot of time to daily training throughout the academic year in middle and long distances.

It should be remembered that such sports activities should be planned wisely to ensure the physical load on the body and the recovery of the body.

Taking into account the above characteristics of higher educational institutions training sports coaches, an individual approach should be used to train student-athletes participating in athletics competitions. At the same time, during the period of studying at the university, training should be strictly cyclical at all stages of the development of the athlete's sports form. Thus, each cycle represents the next stage of the athlete's training, which means that the amount of load that is physiologically justified for a certain stage of the development of his training level is absorbed.

Low-quality planning of training of runners, first of all, relatively low intensity of the training process or uneven distribution of competition loads, are the shortcomings made by some coaches in higher education institutions. As a result, such incompetence does not allow athletes to achieve high results.

The coach determines which method of development of speed and endurance in running is most suitable for the athlete.

As for the specifics of one or another distance running method, for example, middle and long distance running belongs to the "submaximal power" zone of work. That is, one of the indicators characterizing this work is the "oxygen debt", which increases during competitive running and reaches a significant value by the end of the distance, and physical capacity is one of the most important factors in the physical fitness of runners.

An athlete is largely dependent on the level of development of basic motor qualities such as speed, flexibility, strength, endurance, and the improvement of the athlete's technical and tactical preparation.

Thus, increasing the level of physical fitness is the main task of sports training.

Endurance is important in long-distance running, which is the body's ability to resist fatigue. The leading special quality is speed endurance, that is, the ability to maintain speed during the race. In order to develop speed endurance among student-athletes specializing in running, the educational process should be structured in such a way that the tasks of developing general and then speed endurance are systematically solved.

In the special literature on athletics, it has been repeatedly emphasized that it is possible to increase special endurance by increasing the average intensity of training, that is, by using different training loads and increasing their variability. In addition, the development of the speed qualities is always helped by sports games that require special endurance from the athlete to perform short and long swings at maximum speed. Anaerobic running training plays an important role in training an athlete.

Improving the technical and tactical skills of the athlete should be done at a speed close to competition. In this regard, the volume of anaerobic running should be significant in the general structure of training students.

CONCLUSION

In fact, the training strategy is to gradually increase the proportion of special training as the athlete's sports skills grow. Due to the use of new and effective methods of training, a stable growth of sports results in long-distance running is ensured.

The methodology of developing the functional capabilities of athletes includes various approaches, and the priorities of the classical school are noted in technical training. It seems necessary to improve the technical training of middle and long-distance runners by searching for new effective and high-quality methods to achieve high sports results in the training of students of higher educational institutions of the faculty. In addition, in order to improve the individual running technique of a certain athlete, it is important to determine his physiological characteristics, which should have an effective effect on the essence of the training process, and it is important to choose a pedagogical methodology.

The use of an individual approach to the training of athletes among student-athletes participating in athletics competitions, the improvement of the individual running technique based on the determination of the athlete's unique capabilities, as well as the use of the main components, the training of athletes allows to achieve positive results in middle and long distance running.

REFERENCES:

1.To‘xtaboev N.T., Shakirjanova K.T., Soliev I.R., Uzoq masofalarga yugurish uslubiyati, O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: 2016 y.

2.Olimov M.S. Soliev I.R. va boshqalar. Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati. Darslik. Toshkent. 2018 y.

3.Бальсевич, В.К. Перспективы развития общей теории и технологии спортивной подготовки и физического воспитания (методологический аспект) / В.К. Бальсевич // Теория и практика физ. культуры. – 2007. – № 4.

4. Коробков, А.В. Соотношение средств общей и специальной физической подготовки в системе спортивной тренировки / А.В. Коробков // Теория и практика физ. культуры. – 2012. – № 4.

5. Лигута, В.Ф. Динамика физического состояния курсантов и слушателей в процессе обучения в вузе / В.Ф. Лигута, К.Ю. Горин, А.С. Рукавишников // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2016. – № 1.

6.Шестаков, М.П. Высокотехнологические инновации тренировочного процесса в легкой атлетике / М.П. Шестаков // Современный взгляд на подготовку легкоатлетов : материалы международной конференции. – М., 2006.

7. Olimov M.S., Soliev I.R. Haydarov B.Sh. Sport pedagogik mahoratni oshirish (Yengil atletika). Darslik. Toshkent. 2018 y.

8.Muxsinbek Olimov. Yengil atletikachilarning ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg‘ulot yuklamalarini taqsimlash va boshqarish texnologiyasi. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 3-son (2021-yil, iyun).

"BOBURNOMA"DA BOBURNING PORTRET VA SIYRAT TASVIRIDA MAHORATI

Zahed Muhammad Zahir
Afg‘oniston-Taxor univarsiteti
Zahidzaher659@gmail.com

Annotatsiya: Adabiyotimiz tarixida “Boburnoma” singari portret va peyzaj tasviriga keng o‘rin berilgan asarni kam uchratamiz. Portret bir kishining bo‘y-basti, yuz-ko‘zlari, kiyim-kechagi, yurish-turishi, xatti-harakati, axloq-atvoridir. Asarda ko‘plab odamlarning aniq, betakror portretiga duch kelamiz: xon, amir, beklar haqida gap ketganda uning valodat va nasabi, shakl va shamoyili, axloq va atvori, masof va urushlari, umarosi haqida qisqa, aniq ta‘rif-tasvirlar beriladi. Bunday tasviriy vositalar esa asar badiiyligini ta‘minlovchi muhim poetik birlikdir.

Bobur portret yaratishda odamlarning tashqi ko‘rinishi bilan birgalikda, ichki dunyosiga ham nazar soladi, tarixiy shaxslarning faqat yaxshi tomonlarini tasvirlab o‘tmasdan, balki ularning salbiy xislatlarini ham aytib o‘tadi. Portret tasvirini shunchalik real tasvirlaydi, tasviriy vositalar o‘z funksiyalarini shunchalar aniq va to‘la ifoda etadiki, bu muallifning qancha mahorati borligidan dalolat beradi.

Kalit so‘zlar: Bobur, Boburnoma**,** Portret**,** tasvir**,** Umarshayx mirzo**,** Sulton Ahmad mirzo**,** Sulton Ahmad mirzo**.**

Abstract: In the history of our literature, we rarely find such a work as "Boburnoma" in which portraits and landscapes are given a wide place. A portrait is a person's height, face, eyes, clothes, behavior, manners. In the work, we come across clear, unique portraits of many people: when it comes to khans, emirs, and begs, short, clear descriptions are given about their status and lineage, appearance and appearance, morals and behavior, distance and wars, and their family. Such pictorial means are an important poetic unit that ensures the artistry of the work.

While creating portraits, Babur investigates the inner world of people along with their external appearance, not only describes the good aspects of historical figures, but also mentions their negative qualities. It depicts the image of a portrait so realistically; visual tools express their functions so clearly and fully that it shows how much skill the author has.

Keywords: Babur, Baburnama, Portrait, image, Umarshaikh Mirza, Sultan Ahmad Mirza, Sultan Ahmad Mirza.

Kirish

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari uning aqliy salohiyati, tafakkuri, sinchkov tabiatining yorqin ifodasi sifatida maydonga kelgan va

kitobmuxlislarni hayratga solgan bemisol tafakkur mahsuli hisoblanadi. Asarning qomusiy xarakteri nihoyat ko‘p ta‘kidlanib kelingan. Darhaqiqat, asarda ijtimoiy hayotning muhim sohalariga oid arzishli ma‘lumotlar jamlangan. boshdan Sharq xalqlari madaniyati va tarixida saxovat, ochiqqo‘llik insonning eng yaxshi xususiyati sifatida qadrlanib kelingan. Boburning “Boburnoma” asarida ham muallif o‘zining atrofidagi oddiy olamdan boshlab otasi Umarshayx, temuriy hukmdorlar va beklar xususiyatidagi oqko‘ngillik, xayr-u saxovatni olqishlagan. Bu xususiyat ularning ijobiy jihatlarini to‘ldirgan, desak xato bo‘lmaydi. “Boburnoma”da muallif mushaxxas bir davrni tasvirlashda butun bir fan olamiga: hayvonot, nabotot, o‘simliklar dunyosi, tarixiy geografik hududlar, harb ishiga, harbir ulkaning milliy madaniyatiga, urf-odatlariga alohida to‘xtalib, mumtoz adabiyotimizning nodir namunasini yaratdi. Bobur uzoq yoshga kirmagan bo‘lsada, ba’zi podshohlardek hayoti sermazmun va saodatli kunlarga boy bo‘lmasada, ammo, qisqa bir davrda misli ko‘rilmagan ilmiy yangiliklarning buyuk kashfiyotchisiga aylandi.

Bobur, birinchi navbatda, shoh, boburiylar sulolasining asoschisi bo‘lsa, keyingi o‘rinda uning iste’dod sohibi ekanligining ko‘ramiz. U buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyapardoz adabiyotshunos, tarixchi, faqih, tilshunos, san‘atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko‘pqirrali faoliyat va ijod sohibi edi. Birgina “Boburnoma” asarida uning 20 dan ortiq sohalarga qiziqqanligiga guvoh bo‘lamiz. Bu asar Boburga jahoniy shuhrat keltirgan. Har bir asar kitobxon qalbiga kirib borishi, uning xotirasi muqim o‘rnashib qolishi uchun yozuvchidan tasvirlayotgan voqea-hodisasini ta‘sirchan qilib tasvirlashni talab qiladi. Chunki kitobxon tanishgan voqea-hodisa, qahramonlar qanchalik ishonarli bo‘lsa, qanchalik jonli qilib tasvirlansa, yozuvchining ilgari surayotgan g’oyasi unga shunchalik kuchli ta‘sir qiladi.

“Boshqa tasvir vositalaridek, portretning ham badiiy asarda o‘rni va azifasi bor. Portretga ajratilgan o‘rin, yuklangan vazifa bir mantiqqa, ma’lum bir badiiy qonunga bo‘ysundirilgan bo‘lishi shart. Portret asarning g‘oyaviy yo‘nalishidan chetda bo‘lishi mumkin emas”

Yozuvchi portretning qaysi turini qo‘llamasin, u qahramonning ruhiy dunyosini ochishga, uning o‘ziga xos xususiyatlari aks ettirishga intilsa, kitobxon ko‘z o‘nggida jonli odam namoyon bo‘ladi.

Demak, adabiy portret asar qahramonining faqatgina zohiriy qiyofasi, ko’rinishini tasvirlash uchungina emas, qahramonning botiniy olamini ochib berishga, o‘ziga xos belgilarini ko‘rsatishga ham xizmat qilar ekan. Har bir yozuvchi portret yaratishda o‘ziga xos, betakror xususiyatlarga ega. Boburning portret yaratish mahorati shundan iboratki, u qisqa portret chizgilaridan foydalanishni lozim topadi va shu qisqa jumlalar orqali tasvirni haqqoniy ko‘rsatib beradi. “Boburnoma”da tasvirlangan shaxslar real voqelikda harakat qiladi. “Boburnoma” yozuvchi

xotirotlari, esdaliklaridan tashkil topgan. Shu sababdan uning asl nomini muallifning o‘zi “Vaqoyi‘noma”, ya‘ni “Voqealar kundaligi” deb atagani ham bejiz emas. Chunki bu voqealarning asosiy ishtirokchisi va bosh qahramoni Boburning o‘zi bo‘lib, bu haqda u shunday yozadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum,
Har kim bu “Vaqoyi’ni o‘qur, bilgaykim,
Ne ranju mehnatu ne g‘amlar ko‘rdum
(V. Rahim, E. Husniddin, 2006, 473).

Bobur shoh va shoir, teran fikrli, adolatpeshalikning timsoli bo’lgan. U o‘zining qisqa hayoti davomida ko‘pgina buyuk ishlarni bajara olgan.

Muallif “Vaqoyi‘noma”ni yozishga boshlagan kunidan olib voqea-hodisalar talqini va kishilar shaxsiyatiga doir fikr-mulohaza va ma‘lumotlarning haqiqiy va tug‘ri yozishga ahd qilgan va quyidagi fikrlarni aytgan: “Bo‘lgan voqealarni rost yozganman. Chunki bu asarda shu narsa lozim topilganki, har so‘zning rosti bitiladi va har ish qanday voqe bo‘lgan bo‘lsa, shunday aytiladi”. Shu bois Bobur har bir shaxsga baho berganda uning barcha muhim fazilatlari va fe‘l-atvoridagi nuqsonlarini aytishga harakat qiladi. Bunda u mustasnolikka yo‘l qo‘ymaydi, hatto otasi bo‘lsa ham o‘sha ikki zaruriy o‘lchovga amal qiladi. Faqat otasigina emas, o‘ziga nisbatan ham xolis baho berib kamchiliklarini aytib bergan.

“Boburnoma”da muallif obrazidan tashqari ko‘plab tarixiy shaxslar, temuriy hukmdorlar, ayollar, beklar, amirlar, amaldorlar, muxoliflar, ilm-fan va san‘at namoyondalari va boshqalarning tashqi va ichki portretlari mohirona chizilgan, ularning xatti-harakatlari, faoliyati xarakter xususiyati ochiq ko‘rsatilgan. Tarixiy shaxslar portreti, xarakter xususiyatlarini yoritishda muallif ularga obektiv munosabatda bo‘lishga, ularning yashash tarzi va yashash sharoitidan kelib chiqib, portret va xarakterni eng muhim va qisqa iboralarda tasvirlab berishga harakat qilgan.

Movarounnahrlik hukmdorlar to‘g‘risidagi ma‘lumotni muallif, dastavval, otasi Umarshayx mirzo haqida beradi. Shu o‘rinda, Boburning hukmdorlar hayoti va faoliyatini tasvirlashda o‘ziga xos usuldan foydalanadi. Birinchidan, u hukmdorlarning nomini tilga olib, “Valodat va nasabi”, “Shakl va shamoyili”, “Axloq va atvori”, “Masof va urushlari”, “Viloyati”, “Avlodi”, “Xavotun va sarori”, “Umarosi” kabi sarlavhalar ostida ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni haqqonilik bilan bayon qiladi. Bobur asarida Umarshayx mirzo, Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzo, Boysunqur mirzo hamda Sulton Husayn Boyqaro haqidagi ma‘lumotlarni bayon qilishda yuqorida sanab o‘tilgan tartibga asoslanadi. “Boburnoma”da ishtirok etgan shaxslarni ularning asarda tutgan o‘rniga ko‘ra 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Tarixda nomqoldirgan shaxslar obrazi.
2. xotin-qizlar obrazlari.

3. Ijodkor shaxslar obrazi.

“Boburnoma”da berilgan obrazlar asar matnida turli munosabatlarga daxldor bo‘lib tilga olinadi. Har bir obrazga berilgan xos munosabat asarning qimmat va arzishini yanada oshirgan.

“Boburnoma”da tarixiy siymolar obrazi asosiy o‘ringa ega dir. Tarixiy shaxslarni ham asardagi ishtiroki, egallab turgan vazifalari, kasbi va ijtimoiy vaziyatiga ko‘ra, bizning nazarimizga ko‘ra, besh guruhga ajratish maqsadga muvofiq keladi:

1. Hokimlar obrazi: Umarshayx mirzo, Badiuzzamon mirzo, Abdulaziz mirzo, Boysunqur mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Ulug’bek mirzo, Shayboniyxon va boshqalar.

2. Amirlar obrazi: Darvesh Alibek, Jahongir Barlos, Nuyonbek, Zunnun arg‘un, Muhammad Burunduq barlos va boshqalar.

3. Vazirlar obrazi: Majdiddin Muhammad, Shayxulislom Sayfuddin Ahmad, Mullozodayi Mullo Usmon, Mavlono Shayx Husayn, Mir Murtoz, Mullo Mas‘ud Shirvoniy va boshqalar.

4. Din olimlari obrazi: Xoja Ubaydulloh Ahror, Kamoliddin Husayn Gozurgoxiy, Mir Sarbaraxna va boshqalar.

5. Harbiy amaldorlar obrazi: Dilovarxon, Qosimbek va boshqalar.

Bular orasida hukmdorlar obrazlari asar voqealarning asosiy ishtirokchisi va asar kompozitsiyasida yetakchi mavqe egallagani uchun ular haqida izchil ma‘lumot berishga harakat qilindi.

“Boburnoma”da mingdan ortiq turli toifadagi kishilar haqida so‘z yuritilar ekan, asarda tasvirlangan har bir obraz, personaj, shaxs o‘zining tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori bilan alohida ajralib turadi. Eshontirarlisi, muallif kim haqida so‘z yuritmasin, uni ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini boricha kitobxonga ko‘rsatib o‘tadi. Bobur asarning boshdan oxirigacha voqeliklarni, shaxslarni tasvirlashda, shaxsiy munosabatidan qat‘i nazar haqiqiy baho berishga harakat qilgan. Asarda yorqin tasvir etilgan personajlardan biri Boburning otasi Umarshayx mirzodir. U otasi Umarshayx mirzoni tasvirlar ekan: “past bo‘yluq, tegirma saqolliq, qo‘ba yuzluq tanbal kishi edi. To‘nni bisyor tor kiyar edi, tortib bog‘latur edi, andog‘kim, bog‘-bog‘laturda qornini ichiga tortib bog‘latur edi, bog‘-bog‘lag‘ondin so‘ng o‘zini qo‘ya bersa, bisyor bo‘lur edikim, bog‘lari uzulur edi. Dastorni dastor pech chirmar edi. Ul zamonda dastorlar tamom chorpech edi, bechin chirmab, aloqa qo‘yar edilar. Yozlar g‘ayri devonda aksar mo‘g‘uliy bo‘rk kiyar edi” (bobur, 2008, 8 bet). der ekan, hatto otasi haqida fikr yuritganda ham xolis baho berganini ko‘rishimiz mumkin. “Past bo‘yluq” iborasi orqali Bobur otasining uzun emas, o‘rta bo‘ylik ham emas balki past bo‘ylik inson ekanligini ko‘rsatadi. Ustidagi kiyim, to‘nga berilgan ta‘riflardan esa Umarshayx mirzo keng yelkali inson bo‘lganini anglaymiz. “Tegirma saqolliq” va “qo‘ba

yuzluk” iboralari orqali esa qalin soqollik, keng yuzli kishi bo‘lganidan dalolat beradi. “Dastorni dastor pech chirmar edi” iborasida Umarshayx mirzoning sallasini maxsus salla o‘raydigan kishi o‘rab qo‘yishi nazarda tutilmoqda. O‘sha davrda salla ko‘pincha mahkamalar, siyosiy jarayonlarda o‘ralgan. Bobur Umarshayx mirzo portretini chizganda yoz paytlarida mahkamadan boshqa yerlarda mo‘g‘ulcha qalpoq kiyishini ham alohida ta‘kidlaydi. Bu tasvirda qahramonning asosiy va xarakterli tomonlari, uning fiziologik ko‘rinishi ham, kiyimlari ham, bu kiyimlarni kiyish xususiyatlari ham qamrab olingan. Bu detallar shunday birikmada keltirilganki, ular mazkur shaxsning xarakterini va ichki dunyosini bilib olishga katta yengillik tug‘diradi.

Bobur otasining xarakteri va xulq-atvori haqida so’z yuritar ekan: “hanafiy mazhabliq, pokiza e’tiqodliq kishi edi, besh vaqt namozini tark qilmas edi, umriy qazolarini tamom qilib edi, aksar tilovat qilur edi” (bobur, 2015, 16 bet) deb, uning hanafiy mazhablik, pok, e‘tiqodli shaxs bo‘lganini va namozlarini to‘liq ado etishini, hatto butun umrlik qazolarini ham tugatib bo‘lganligini alohida ta‘kidlab, shu xislatlarini Umarshayxning ijobiy fazilatlariga kiritadi. Demak, Umarshayx mirzo iymonli, e’tiqodli shaxs bo‘lgan.

Namoz islomning shartlaridan biri va islom dinida har bir musulmonga farz qilingan. Umarshayx mirzo ham islomning shartlariga amal qilib besh mahal namozlarini to‘liq ado etgan, hattoki butun umrlik qazolarini ham tugatib bo‘lgan. Bu uning ijobiy xislatlaridan dalolat qiladi.

Bobur otasining ahli ilm va ularning ijodiga qiziqishini aytadi: “Ravon savodi bor edi. “Xamsatayn” va masnaviy kitoblarni o‘qur edi. Aksar Shohnoma o‘qur edi” (bobur, 2008, 8 bet), - der ekan, otasining Alisher Navoining ijodini hurmat qilishi, fors adabiyoti ayniqsa, Abulqosim Firdavsiy ijodiga mehri borligini aytadi. “Tab’i nazmi bor edi, vale she’rg‘a parvo qilmas edi” der ekan, uning she‘riyatga tab‘i nazmi borligini, lekin she‘r yozmaganligini tasvirlaydi. Muallif otasining adolatli, omonatga xiyonat qilmaydigan inson sifatida qadrlaydi. Haqiqatdan ham Umarshayx Mirzo odil podshoh bo‘lgan. Quyidagi tasvirda fikrimizning isboti sifatida muallif aniqroq tasvirni bayon etgan: “Adolati bu martabada ediki, Xitoy korvoni keladurganda, Andijonning sharqiy tarafidag‘i tog‘larning tubida ming o‘yluk korvonni andog‘ qor bostikim, ikki kishi qutuldi. Xabar topib muhasillar yiborib, korvonning jami’ jihotini zabt qildi. Har chandikim vorisi hozir yo‘q erdi, bovujudi ehtiyoj saxlab, bir ikki yildin so‘ngra Samarqand va Xurosondin vorislarini tilab kelturub, mollarni solim topshurdi” (bobur, 2008, 12 bet).

Birovning omonatiga bunday munosabat, Umarshayx mirzoning ibrat olsa arziydigan xislatlari, bugun uchun ham ahamiyatlidir.

Muallif otasining ijobiy xislatlarini bayon qilar ekan, shunday so‘z yuritadi: “Bisyor saxovati bor erdi. Xulqi dag‘i saxovaticha bor erdi, xushxulq va harrof va fasih va shirin zabon kishi eri, shujo’ va mardona kishi edi” (bobur, 2008, 8 bet).

Demak, tasvirlardan ko‘rinadiki, Umarshayx Mirzo saxovatda tengsiz, yaxshi xulqli, hazilkash, so‘zamol va shirinso‘zli kishi bo‘lgan.“Boburnoma”da Umarshayxning salbiy jihatlariga ham alohida o‘rin berilgan. Bobur Umarshayx beklari haqida fikr yuritar ekan, uning o‘z odamlarini tanimasligi va shuning uchun ko‘p shikast topganini aytadi. U otasini “badmaosh”, ya‘ni odamlar bilan til topisha olmasligini, odamlarning tabiatini yaxshi bilmasligini va shu jihati sababli ko‘p pand yeganligini aytadi: “Necha navbat qoyin otasi Yunusxonnikim, Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxon naslidindur, Chig‘atoyxonning yurtida mo‘g‘ul ulusining xoni ul fursatta ul erdikim, mening ulug‘ otam bo‘lg‘ay, istid’o qilib kelturdi. Har qatla kelturganda viloyatlar berur erdi. Chun Umarshayx mirzoning muddaosidek bo‘lmas erdi, gohi Umarshayx mirzoning badmaoshlig‘idin, gohi mo‘g‘ul ulusining muxolafatidin viloyatga turolmay yana Mo‘g‘ulistonga chiqar erdi” (bobur, 2008, 14 bet).

“Boburnoma”ning Umarshayx Mirzo ta’rifi va faoliyati haqidagi sahifalaridan otaning quyidagi ijobiy fazilatlarini sezish mumkin: Umarshayx mardona kishi, oqko‘ngil, shoirlikka ham mayli bor, jismonan kuchli, qo‘li ochiq, himmati baland shaxs va hokazo. Biroq o‘g‘il ta’rifida otaning salbiy xislatlari, tarozi pallasini bosib ketadi: chunonchi, Umarshayx Mirzo tanbal (dangasa, erinchoq), ichkilikboz, badfe’l, urushqoq, do‘stlikni dushmanlikka almashtirishga moyil fe’li bor va hokazo. Umarshayx Mirzo ko‘p ichar ekan. Biroq, keyincha ichkilikdan ma’jun (xushbo‘y dorivor giyohlardan aralashtirib tuyub asal va bir oz afyun qo‘shib tayyorlangan, kishi kayfiyatini ko‘taradi) iste’mol qilishga o‘tgan. Umarshayx qimorboz va kaptarboz edi. Bobur Mirzo kinoyasiga qaraganda, urushqoq bo‘lsa ham janglarda ko‘pincha mag‘lubiyatga uchrardi. Umuman, tarixda o‘tgan shaxslarga baho berishda, ular hozirgi zamon talab darajasida qanday ish qilganliklariga qarab emas, balki o‘zidan ilgarigi davrga va o‘z zamonasiga nisbatan qanday ijobiy ish qilganiga qarab yondashiladi. Agar mana shu xolisona ilmiy o‘lchov bilan qaralsa, Umarshayx Mirzo xalqimiz tarixida durustgina faoliya ko‘rsatmagan tarixiy shaxslardan bo‘lib chiqadi. Bizningcha, faqat o‘g‘li tufayli buyuk Bobur Mirzoga ota bo‘lgani uchungina tarixda nomi saqlanib qolgan.

Xulosa qilib aytganda, Bobur o‘z asarida otasi tasviri orqali tarixiy haqiqatni haqqoniy bayon qilib bergan. Ayniqsa, personajlar xulq-atvori borasidagi tasvirlar e‘tiborga molik. “Boburnoma”da ko‘plab shaxslar, personajlar tasviri berilganki, ular Umarshayx mirzoning ana shunday xarakter xususiyatlarini yanada to’ldiradi. Bobur shunchalik sinchkov shaxs bo‘lganki, hech narsani e’tiboridan chetda qoldirmagan va har bir shaxsga xos bo‘lgan eng nozik jihatlarini egalagan, uni munosib so‘z, ibora

orqali o‘quvchiga mahorat bilan yetkazib bergan. Shuni alohida qayd etish lozimki, qadimdan musulmon xalqlarida yetti ajdodni, ya‘ni «haft pusht»ni aniq bilish keyingi avlodlarga urf bo‘lgan. Bobur shu an‘anaga muvofiq asarida bir qator tarixiy shaxslar haqida to‘xtalib o‘tar ekan, ularning o‘tgan yetti ajdodi haqida, nasabi to‘g‘risida aniq ma‘lumot berishga harakat qiladi.

Muallif “Boburnoma”da avval oilasi, keyin boshqa o‘ziga yaqin, taniqli kishilar haqida fikr yuritadi, ularning shakl-shamoyil va xarakterlarini tasvirlaydi. Bobur bu asarda 1494 yildan 1529 yilgacha bo‘lgan, butun hayot davomida o‘zi ko‘rgan, eshitgan, bilgan voqealarni izchillik bilan, xronologik tartibda bayon qiladi. Bobur o‘z hayotida kechirgan voqealarni tasvirlash jarayonida Farg‘ona, Movaraunnahr va Xurosonda XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida yashagan yirik davlat arboblari, temuriy hukmdorlar, bek va amaldorlar, ilm ahli va ijodkorlar, rassom va xattotlarning o‘z zamondoshlarining ya‘ni tarixiy shaxslarning tashqi qiyofalari, xatti-harakatlarini, fe’l-atvorlarining, ish va amallarini, muhim va xarakterli xususiyatlarini, jamiyat hayotida tutgan o‘rnini, mavqelarini ham tasvirlaydi.

Demak, “Boburnoma”da qator kishi obrazlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Hatto ular asarda belgili bir qahramon “obrazi” Boburning o‘z obrazi tevaragida aylanadilar. Asarning markaziy obrazida turgan Boburning xarakter va xususiyatlar, uning kishilarga, o‘z atrofini o‘rab olgan voqea va hodisalarga bo‘lgan munosabati asardagi barcha voqealarni bir-biriga bog‘laydi. Asarda tasvirlangan boshqa shaxslar ko‘pincha epizodik tarzda beriladi va ular asosiy obrazga biror voqea yoki hodisa munosabati bilan bog‘lanadilar. Lekin asarga muallifning xarakteri eng ko‘p joziba bag‘ishlaydi. Asar memur xarakterga ega bo‘lganligi uchun, unda tasvirlangan kishilarning qiyofasi, portreti ham, ularga berilgan xarakteristika ham, ularning voqealar jarayonidagi xatti-harakatlar, xarakterli xususiyatlari ham muallifning o‘zi tomonidan so‘zlaydi.

Bobur temuriy hukmdorlarni tasvirlar ekan, ularning “viloyati”, “shaklshamoyili”, “xulq-atvori”, “avlodi”, “xotinlar”, “kanizlari” ulardan tug‘ilgan zurriyotlar haqida ham fikr bildiradi.

Muallif temuriy hukmdorlardan biri, amakisi Sulton Ahmad mirzoni tasvirlar ekan: “baland bo‘yluq, qunqor soqollik, qizil yuzluk, tanbal kishi erdi. Soqoli engakida erdi. Ikki yangoqida soqoli yo’q edi. Bisyor xushmuhovara kishi erdi. Dastorni ul zamon dasturi bila chahorpech chirmab, aloqasini ilgarrak qoshining ustiga qo‘yar edi(bobur, 2008, 8 bet)”. ya’ni, “baland bo‘yli, qo‘ng‘ir soqolli, qizil yuzli, norg‘il kishi edi. Soqoli engagiga tushardi. Ikki yonog‘ida soqoli yo‘q edi. Juda shirinso‘z kishi edi” deydi. Yuqoridagi ta‘riflardan ko‘rinadiki, Sulton Ahmad mirzo baland bo‘yli, qizil yuzli, dangasa kishi bo‘lgan. Suhbatda juda shirinso‘z bo‘lgan. Bunday xislatlar Sulton Ahmad mirzoning ijobiy sifatlaridir.

Muallif Sulton Ahmad mirzoning xarakterini esa quyidagicha izohlaydi: “hanafiy mazxabliq, pokiza e’tiqodli kishi erdi, besh vaqt namozini betark o‘tar edi. Ichkilik mahallarida ham namozi tark bo‘lmas edi”. Demak, Sulton Ahmad mirzo hanafiy mazhabida, pok e’tiqodli shaxs bo‘lgan va besh vaqt namozlarini tark etmagan, hattoki ichgan paytlarida ham namozni kanda qilmagan. Bobur Sulton Ahmad mirzoning faqir bir inson ekanligini va harakatlarini, qarorlarini beklarsiz amalga oshira olmasligini quyidagicha tasvirlaydi: “Sulton Ahmad mirzo kamgap, faqir va odmi kishi edi. Biror muhim maslahat va ish-harakat beklarsiz qaror topmas edi” (bobur, 2o15, 74 bet).

Temuriy amir va beklar ko‘plari islom e’tiqodiga e’tiborli bo‘lganliklari tarixdan yaxshi ma’lum. Xususan, Xoja Ahror Valiydek ulug‘ alloma va avliyoga Sulton Ahmad mirzo ham murid bo‘lgani va Xoja Ahror Valiy suhbatida juda odob saqlagani buning dalilidir: “Hazrati Xoja Ubaydullohga murid edi. Hazrati Xoja unga murid va homiy edi. Juda odobli edi, xususan, Xoja suhbatida. Aytishlaricha, hargiz Xoja yig‘inida bir tizzasini ikkinchi tizzasiga chalishtirib o‘tirgan emasdi. Bir safar hazrati Xoja suhbatida, odatga xilof tarzda, oyoqlarini uzatib o‘tiribdi. Mirzo o‘rnidan turgandan so‘ng, hazrat Xoja mirzo o‘tirgan yerni qarab ko‘rishni buyuribdi: bir suyak bor ekan” (bobur, 2008, 22 bet).

Bobur Sulton Ahmad mirzo haqida fikr yuritar ekan, uning hech nima o‘qimaganligini, savodi yo‘qligini, ammo, sodda va to‘g‘riso‘z shaxs bo‘lganini aytadi. Sulton Ahmad mirzo iste’doddan bebahra inson, lekin adolatli, bir so‘zli, ahdiga vafodor bo‘lgan. Bobur fikricha, u shijoatli inson bo‘lib, o‘qni juda yaxshi otgan, bundan tashqari u qush ovlash bilan ham shug‘ullangan. Hayoda tengsiz bo‘lgan, biroq tabiatida xasislik ustun bo‘lgan, kam gapiradigan oddiy inson bo‘lib, barcha inon-ixtiyori beklar qo‘lida bo‘lganligini muallif quyidagicha tasvirlaydi: “Hech nima o‘qigan emas, savodsiz kishi edi. Shaharda ulg‘aygan bo’lishiga qaramay, to‘g‘riso‘z va sodda edi. Iste’doddan bebahra edi. Odil kishi edi. Ahd va so‘ziga barqaror kishi edi. Hargiz undan ahdga xilof ish yuz bermadi. Shijoati bor edi. O‘qni juda yaxshi otar edi. Qushchi edi, qush bilan qush ovlar, yaxshi ovlardi. Juda hayoli edi. Deydilarki, hilvatlarda mahram va ichkilaridan ham oyoqlarini bekitar ekan. Tabiatida xasislik ustun qilar, kamso‘z va odmi kishi edi, ixtiyori beklar qo‘lida edi” (bobur, 1989, 46 bet).

Bobur Abusaid mirzoning uchinchi o‘g‘li Sulton Mahmud mirzoning portretini chizar ekan, “past bo‘yluq, suyuq soqolliq, tanbal, sinchisizroq kishi edi” (bobur, 2008, 32 bet), deb atigi bir jumlada Sulton Mahmud mirzoning tashqi ko‘rinishigina emas, xarakteriga xos muhim jihatlarni ham aks ettirgan. “Past bo‘yluq” va “tanbal” iboralari Sulton Mahmud mirzoning ham xuddi Umarshayx mirzo kabi chorpaxldan kelgan baquvvat kishi ekanidan dalolat beradi. Tasvirdagi “sinchisizroq kishi edi” iborasidan esa psixologik nuqtai nazardan kam e’tiborroq, beg‘amroq kishi

tushunilgan. Xalq tilida “boqi beg‘am” iborasi bu tushunchaga nisbatan to‘g‘ri keladi. Xulq-atvori haqida fikr yuritar ekan, “yaxshi edi. Namozni tark qilmas edi. Tuzuki va zabti bisyor yaxshi edi. Siyoq ilmini xo‘b bilur edi” (bobur, 2008, 33 bet).

